



O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 07.12.2023 yildagi 648-son

Кучга кириш санаси

11.12.2023

Қўшимча ахборот

Улашиш

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING QARORI

### PROFESSIONAL TA'LIMDA KREDIT-MODUL TIZIMINI JORIY ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida” 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son, “O'zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o'z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qarorlari ijrosini ta'minlash hamda professional ta'limda kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

#### 1. Quyidagilar:

a) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qarori bilan tasdiqlangan Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasini transformatsiya qilish jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha “yo'l xaritasi”ning 31-bandida:

professional ta'lim muassasalari pedagog xodimlarining o'quv-me'yoriy hujjatlari hamda pedagogik yuklamalarini qayta ko'rib chiqish;

professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarining malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish;

b) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PQ-300-son qarori bilan tasdiqlangan “O'zbekiston — 2030” strategiyasining har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun munosib sharoitlar yaratish yo'nalishi bo'yicha 2023-yilda ishlab chiqiladigan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari ro'yxatining 7-bandida texnikumlarda kredit-modul tizimini joriy etish nazarda tutilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilarni nazarda tutuvchi Texnikumlarda kredit-modul tizimida o'quv jarayonini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin:

o'rta bo'g'in kadrlar tayyorlashda kredit-modul tizimi bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim sifatini ta'minlash;

o'quvchilar tomonidan o'quv yili va semestr davomida to'planadigan kreditlar miqdori va o'zlashtirish lozim bo'lgan fanlarni belgilash;

o'rta bo'g'in kadrlarni tayyorlashda kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish hamda o'quvchilar o'zlashtirishini baholash;

o'quvchilar akademik mobilligi hamda kreditlarni tan olishni amalga oshirish, kredit-modul tizimida ro'yxatga olish xizmatini tashkil etish.

#### 3. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

a) tizimida texnikumlar bo'lgan vazirliklar va idoralar bilan hamkorlikda 2024/2025 o'quv yilidan boshlab texnikumlarda kredit-modul tizimida o'quv jarayonini tashkil etish bo'yicha:

ta'limning kredit-modul tizimiga texnikumlarni bosqichma-bosqich o'tkazib borish choralarini ko'rsin;

o'quv jarayoniga kredit-modul tizimi joriy etiladigan professional ta'lim yo'nalishlari, kasb va mutaxassisliklarining davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini qayta ishlab chiqsin;

b) professional ta'lim tizimi rahbar va pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish bo'yicha 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

kredit-modul tizimi joriy etilishi orqali malaka oshirish kurslarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari takomillashtirilishini va tinglovchilarning muayyan modul (fan) bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasi kreditlar asosida hisoblanishini ta'minlasin;

rahbar va pedagog xodimlarning malaka oshirish shakllarini mustaqil tanlash imkoniyatini yo'lga qo'ysin hamda har o'quv kursi yakuni bo'yicha ta'lim natijalarini monitoring qilsin.

4. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga [2-ilovaga](#) muvofiq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o'zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni ikki oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining birinchi o'rinbosari K.X. Karimov zimmasiga yuklansin.

**O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV**

Toshkent sh.,  
2023-yil 7-dekabr,  
648-son

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-  
dekabrdagi 648-son [qaroriga](#)  
1-ILOVA

## **Texnikumlarda kredit-modul tizimida o'quv jarayonini tashkil etish tartibi to'g'risidagi NIZOM**

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

1. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasidagi texnikumlarda kredit-modul tizimida o'quv jarayonini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Texnikumlarda kredit-modul tizimida o'quv jarayoni Kredit to'plash va ko'chirishning Yevropa modeliga (European Credit Transfer and Accumulation System — ECTS) muvofiq tashkil qilinadi.

3. Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari bilan alohida vakolatlar berilgan professional ta'lim tashkilotlari, nodavlat professional ta'lim tashkilotlari, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimidagi yuridik texnikumlar va O'zbekiston Respublikasi hududida o'z faoliyatini yuritayotgan xalqaro va nodavlat xorijiy professional ta'lim tashkilotlariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

4. Texnikumlar tomonidan boshqa professional (oliy) ta'lim tashkilotlari bilan qo'shma dasturlar doirasidagi shartnomalarda mazkur Nizomda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, ushbu shartnoma qoidalar qo'llaniladi.

5. Kredit-modul tizimi joriy etiladigan ta'lim dasturlari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan belgilanadi.

6. Ushbu Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

**akademik mobillik** — texnikum o'quvchilarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir professional ta'lim tashkilotida ta'lim olishi;

**kredit** — ta'lim olish natijalariga ko'ra o'quvchi tomonidan muayyan fan bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun sonlarda ifodalanadi;

**kreditlarni ko'chirish** — o'quvchilarning akademik mobilligini ta'minlash maqsadida bir texnikumdagi ta'lim dasturida olingan kreditlarni boshqa texnikumga ko'chirish va tan olish;

**kredit to'plash** — o'quv yuklamasini o'zlashtirish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini yig'ish;

**mobillik dasturi** — ikki yoki undan ortiq texnikum o'rtasida o'zaro kelishuv asosida tashkil etiladigan dastur;

**ta'lim dasturi** — professional ta'lim tashkiloti bitiruvchisiga muayyan egallagan kasb yoki mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyatni malakali bajarish imkonini berishga qaratilgan professional ta'lim tayyorgarligining asosiy mazmunini aniqlovchi davlat ta'lim standarti, malaka talabi, o'quv rejasi va o'quv dasturlaridan iborat hujjatlar to'plami;

**ta'lim dasturi katalogi** — professional ta'lim tashkiloti tavsifi, kredit-modul tizimi, mavjud kasb va mutaxassisliklar, o'quv rejalar, o'quv dasturlari, xizmatlar va resurslar tavsifi to'g'risida axborot;

**ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimi** — o'quvchilarni ro'yxatga olish, o'quv materiallarini tarqatish, o'quvchilar va pedagog xodimlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlash, topshiriqlarni berish, nazoratlar o'tkazish, baholash va uning natijalarini qayd etish kabi imkoniyatlarga ega bo'lgan elektron tizim (maxsus dasturiy vosita);

**ta'lim moduli (modul)** — o'quvchida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan ta'lim dasturining tarkibiy qismi sifatida nazorat qilishning tegishli turi bilan yakunlanadigan alohida o'quv fani (uning qismi yoki o'zaro bir sohaga doir fanlar majmui);

**ta'lim elementlari** — ta'lim dasturining bir qismi bo'lib, ta'lim olish natijalariga erishish va ta'lim dasturida ko'rsatilgan bilimlarni o'zlashtirishga hamda ko'nikmalarni egallashga ko'maklashuvchi o'qitish turi;

**transkript** — ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar hamda olingan baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat;

**o'quvchining shaxsiy ta'lim trayektoriyasi** — o'quvchi tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut, reja). Ta'lim trayektoriyasi institutsional hujjatlar va yo'riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta'lim trayektoriyalari natijasida bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin;

**o'quv yuklamasi** — o'quvchi tomonidan o'quv faoliyatining barcha turlarini (ma'ruza, amaliy mashg'ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ish) amalga oshirish asosida kutilgan o'quv natijalariga erishish uchun zarur bo'lgan soatlar hajmi;

**GPA (Grade Point Average)** — ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilgan kreditlari bo'yicha olgan bahosi (ballari)ning o'rtacha qiymati bo'lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$GPA = \frac{K_{T1} \cdot U_1 + K_{T2} \cdot U_2 + K_{T3} \cdot U_3 + \dots + K_{Tn} \cdot U_n}{K_1 + K_2 + K_3 + \dots + K_n}, \text{ bunda:}$$

$K_n$  — har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

$K_{Tn}$  — har bir fan/modul bo'yicha o'quvchi to'plagan kreditlar miqdori;

$U_n$  — har bir fan/modul bo'yicha o'quvchi olgan baho (ball);

$n$  — muayyan fan/modulning soni.

Bunda o'quvchi faqat fan/modulni muvaffaqiyatli yakunlagan taqdirda, ushbu fan/modul bo'yicha kredit beriladi.

7. O'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etishning tashkiliy masalalariga oid ma'lumotlar, shu jumladan, ta'lim dasturi katalogi, akademik mobillik, ta'lim to'g'risidagi ma'lumotnoma, kreditlarni tan olish va ko'chirib o'tkazishga taalluqli hujjatlar (transkript va boshqalar), shuningdek, akademik mobillik davrida o'quvchining bilim darajasini aniqlash bo'yicha ko'rsatkichlar va boshqa zarur hujjatlar namunalari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

8. O'quv rejasida o'zlashtiriladigan majburiy fanlar va tanlov fanlari, ularga ajratilgan soatlar (kreditlar), o'quv yili, nazariy va amaliy mashg'ulotlar, o'quv va ishlab chiqarish amaliyoti, yakuniy davlat attestatsiyasi hamda boshqa zarur parametrlar aks ettiriladi. O'quv rejasida va o'quv dasturi belgilangan tartibda ishlab chiqiladi hamda tasdiqlanadi.

Ta'lim dasturida kreditlarning miqdori umumiy o'quv yuklamasi asosida ko'rsatiladi.

9. Ta'lim dasturi katalogi va o'qitish sharoitlari to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar texnikumlarning rasmiy veb-saytiga qulay yuklanadigan shaklda o'quv yili boshlanishidan kamida bir oy oldin joylashtiriladi.

## **2-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va ta'lim sifatini ta'minlash**

10. O'quv jarayoni o'quv va nazorat tadbirlari majmuini o'z ichiga oladi. O'quv tadbirlarida barcha turdagi auditoriya mashg'ulotlari, amaliyot va mustaqil ishlarning tashkil etilishi nazarda tutiladi.

Nazorat tadbirlari ta'lim oluvchilarning o'quv rejasidagi tegishli fanlar bo'yicha bilimlarni o'zlashtirishini va ularning natijalarini baholashni nazarda tutadi.

11. O'quv jarayoni o'quvchilar, pedagog xodimlar va ma'muriyat o'rtasida ochiq muloqot shaklida o'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv asosida ta'lim dasturlarini inobatga olgan holda rejalashtiriladi. Ushbu jarayonda o'quvchilarning talab va istaklari muhokama qilinadi. Barcha manfaatdor tomonlar ta'lim dasturining yaratilishi va o'zlashtirilishining asoslangan hamda yechimga yo'naltirilgan muhokamasiga jalb etilishi mumkin. Muhokamada o'quvchilar vakillari ovoz berish huquqi orqali ishtirok etadi.

12. O'quv jarayonini rejalashtirish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

o'quv rejasida va o'quv dasturini ishlab chiqish;

ishchi o'quv rejasida hamda fanlarning ishchi o'quv dasturini ishlab chiqish;

tanlov fanlari ro'yxatiga mos ravishda o'quv-metodik bo'lim (yoki bo'lim boshlig'i) nazorati ostida o'quvchilarning shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirish;

akademik guruhlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari jadvalini tuzish.

O'quv rejasiga o'quvchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda o'zlashtiriladigan qo'shimcha kreditlar ajratiladigan ta'lim elementlari kiritiladi. O'quvchining jamoat ishlaridagi faolligi, kasbiy tadbirlar, kasbiga oid faoliyatdagi ishtiroki hamda soha mutaxassislari tomonidan o'tkaziladigan qisqa muddatli kurslardagi ishtiroki rag'batlantirilib, kreditlar ajratiladi.

O'quvchiga o'quv yuklamasidan tashqari o'z ixtiyoriga ko'ra ro'yxati taqdim etiladigan qo'shimcha fanlarni yoki boshqa kasb (mutaxassislik) o'quv rejasining tanlov fanlarida mavjud fanlar ro'yxatidan qo'shimcha fanni tanlab to'lov-kontrakt asosida o'qishiga ruxsat etiladi. Bunda qo'shimcha o'zlashtirilgan fanlar o'quvchi o'quv yuklamasiga (kreditlar hajmiga) qo'shiladi hamda diplom ilovasida qayd etiladi.

13. O'quv yili davomiyligi ta'lim dasturi asosida belgilanadi.

Akademik davr davomida o'quvchi tomonidan to'planishi lozim bo'lgan kreditlar miqdori o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarni o'z ichiga oladi.

Majburiy va tanlov fanlar tarkibi hamda ularni o'rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori fanlar katalogiga muvofiq texnikum tomonidan mustaqil belgilanadi.

O'quvchilar shaxsiy ta'lim trayektoriyasida belgilangan tanlov fanlari doirasida fanlarni mustaqil tanlashi mumkin. O'quvchilarning shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirish tartibi texnikumlar tomonidan belgilanadi.

14. O'quvchi bir o'quv yilida kamida 60 kredit to'plashi zarur. O'quv yili davomida o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan kreditlar hajmi o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarni o'z ichiga oladi.

O'quvchi o'zining shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirishda har bir o'quv yili uchun kamida 60 kredit hajmidagi fanlarning o'zlashtirilishini nazarda tutishi, uning tarkibida o'quv rejasidagi majburiy fanlar bo'lishini inobatga olishi shart.



15. O'rta maxsus professional ta'lim dasturi asosida bitiruvchi oliy ta'lim muassasalarida ikkinchi bosqichdan o'qishini davom ettirganda, to'plangan jami kreditlar oliy ta'lim muassasasining birinchi bosqichida to'planishi lozim bo'lgan kreditga tenglashtirilgan holda hisoblanadi.

Bunda o'rta maxsus professional ta'lim dasturi va bakalavriat ta'lim yo'nalishi dasturi taqqoslangan holda o'quvchi ta'lim dasturidagi fanlar farqlarini o'quv yili yakuniga qadar o'zlashtirishi lozim.

16. Texnikumlarda o'quv yuklamasining hajmi o'quv rejasi asosida belgilanadi.

Kredit-modul tizimida 1 kredit o'rtacha 25 — 30 akademik soat hisobidagi o'quv yuklamasiga teng qilib olinadi. Bunda o'quvchi muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun belgilab olingan miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur.

O'quv yuklamasi auditoriya soati va mustaqil ta'lim soatiga bo'linadi.

Ta'lim dasturi o'quv yili uchun o'quvchi tomonidan, qoida tariqasida, bir semestrda 30 kredit, bir o'quv yilida 60 kredit to'plashi inobatga olinib ishlab chiqiladi.

Kechki, sirtqi va dual ta'lim shakllari hamda ta'lim sohasi xususiyatidan kelib chiqqan holda, semestr va bir o'quv yilidagi kreditlar miqdori texnikum pedagogik kengashining qarori bilan o'zgarishi mumkin.

Shaxsiy ta'lim trayektoriyasi asosida tahsil olayotgan o'quvchilar ham har bir semestr uchun 30 kredit hajmidagi fanlarni o'zlashtirishi va ushbu fanlar tarkibida o'quv rejasidagi majburiy fanlar bo'lishi shart.

17. Ta'lim sifatini ta'minlash va pedagog xodimlar o'rtasida raqobatni shakllantirish maqsadida texnikumning pedagogik kengashi qaroriga asosan ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimi portali orqali o'quvchilarga fan doirasida o'quvchilarning shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirish jarayonida pedagog kadrlarni tanlash imkoniyati beriladi.

18. Akademik qarzdor o'quvchilarning tashabbusi bilan mavjud akademik qarzlarni topshirish texnikumda, qoida tariqasida, ta'til vaqtida pulli asosda tashkil etiladi.

Ta'til davrida akademik qarzlarni topshirish quyidagi tartibda tashkil qilinadi:

o'quvchi ta'til boshlanguniga qadar texnikum direktorining o'quv jarayonini tashkil etishga mas'ul bo'lgan o'rinbosariga (keyingi o'rinlarda — direktor o'rinbosari) o'zining ta'til davrida o'qish istagini bildiradi;

direktor o'rinbosari ushbu o'quvchiga ta'til davri uchun dars jadvalini tuzadi va o'quvchi to'lov pulini to'laganidan so'ng darslarga kiritiladi;

ta'til davridagi o'qish amaldagi baholash tizimi asosida o'quvchilar bilimini shaffof baholash tamoyiliga ko'ra tashkil qilinadi.

Ta'til davridagi o'qishga o'qituvchilar o'z ixtiyorlari asosida jalb qilinadi hamda ularga soatbay asosida ish haqi to'lanadi.

Ta'til davridagi o'qishni o'quv rejasida belgilangan ishlab chiqarish amaliyotlari va boshqa o'quv mashg'ulotlari hisobidan o'tkazishga yo'l qo'yilmaydi.

### **3-bob. O'quvchilarning o'zlashtirishini baholash tizimi**

19. Ta'lim dasturi doirasida texnikum o'quvchilarining bilimini baholash qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

20. Fanning ishchi o'quv dasturida belgilangan baholash tartibiga muvofiq hamda ijobiy baholar doirasida baholangan o'quvchilarga kreditlar beriladi.

O'quvchi belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, kreditlar berilmaydi.

21. Baholash usullari o'quvchining fan doirasidagi yutuqlarini aks ettiruvchi va tasdiqlovchi yozma, og'zaki, amaliy ish, loyiha ishi kabi nazorat turlarini o'z ichiga qamrab oladi.

Baholash mezonini o'qitish natijalariga erishilganligini aks ettirishi shart.

22. Bir texnikumdagi baholash tizimi boshqa bir texnikumdagi yoki (xorijiy) professional ta'lim tashkilotidagi baholash tizimi bilan qiyosiy taqqoslash orqali baholash tizimiga konvertatsiya qilinib, kreditlarni ko'chirish amalga oshiriladi.

#### 4-bob. O'quvchilarning akademik mobilligi va kreditlarni tan olish

23. Akademik mobillikni ta'minlash va o'quvchining kreditlari boshqa texnikumlar tomonidan tan olinishida quyidagi hujjatlardan foydalaniladi:

ta'lim dasturi katalogi;

ta'lim to'g'risidagi kelishuv, ma'lumotnoma va transkript.

Mazkur hujjatlar ta'lim olish natijalarini aks ettiradi va texnikumlarga kreditlarni tan olish va o'qishni ko'chirib o'tkazishni ko'rib chiqish uchun asos hisoblanadi.

24. Akademik mobillik doirasida o'quvchining barcha kreditlari texnikum tomonidan ta'lim dasturini o'zlashtirishda to'liq hisobga olinadi.

25. O'quvchi jo'natuvchi texnikum tavsiyasiga asosan qabul qiluvchi texnikumga akademik mobillikni amalga oshirish uchun zarur hujjatlarni topshiradi.

Jo'natuvchi texnikum tomonidan o'quvchiga belgilangan shakldagi transkript taqdim etiladi.

26. O'quvchining akademik mobillik davrida o'zlashtirishi belgilangan fanlarni jo'natuvchi texnikumning roziligisiz va u bilan kelishmasdan o'zgartirish mumkin emas.

Xorijdagi hamkor professional ta'lim tashkilotining fan dasturida belgilangan ta'lim olish natijalari texnikumning fan dasturi bo'yicha ta'lim olish natijalariga mos kelishi yoki ularni to'ldirishi lozim.

27. Qabul qiluvchi texnikumda o'quvchi tomonidan o'zlashtiriladigan fanlar jo'natuvchi texnikumning fanlariga integratsiya qilinganligi, shuningdek, akademik mobillik davrida o'quvchining bilim darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlarning jo'natuvchi va qabul qiluvchi texnikumning baholash tizimlariga konvertatsiya qilinganligi akademik mobillik to'g'risidagi shartnomada aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Qabul qiluvchi texnikumda o'zlashtiriladigan kreditlar miqdori texnikumda yoki xorijda o'qish davriga (3 — 6 oy yoki 1 yilga) mutanosib bo'lishi kerak. Jo'natuvchi texnikum tomonidan o'quvchi akademik mobillik davrida o'zlashtirgan (to'liq yoki qisman) kreditlari tan olinadi. O'quvchi jo'natuvchi texnikumga qaytib kelganda, akademik mobillik davrida to'plangan kreditlar miqdoridan kelib chiqib, amaldagi tartibga ko'ra uni keyingi bosqichga o'tkazish yoki bosqichda qoldirish belgilanadi.

Texnikumning hamkor tashkilotlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari doirasida akademik mobillik uchun ta'lim to'g'risidagi kelishuvlar tuzishi talab etilmaydi.

28. Texnikum o'quvchilarining o'qishini ko'chirish, o'qishdan chetlashtirish, qayta tiklash va kursdan kursga o'tkazish Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi 466-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi [nizomga](#) muvofiq amalga oshiriladi.

O'qishini boshqa texnikumlarga ko'chirishga ruxsat berilgan o'quvchilarning tegishli mutaxassisligi o'quv rejasi taqqoslangan holda fanlar va kreditlar miqdoridagi farqlar aniqlanadi.

Bunda to'planishi lozim bo'lgan kreditlar miqdorining 10 foizigacha o'zgarish bo'lganda farq qilgan fanlarni joriy o'quv yili yakuniga qadar o'zlashtirish lozim bo'ladi.

To'planishi lozim bo'lgan kreditlar miqdoridagi farq 10 foiz va undan yuqori bo'lgan hollarda o'quvchi mazkur bosqichni qaytadan o'qishi lozim.

#### 5-bob. Kredit-modul tizimida ro'yxatga olish xizmatini tashkil etish

29. Ro'yxatga olish xizmatlari ta'lim va o'quvchilar bilimini baholash jarayonlarini alohida yuritish, o'quvchilar haqidagi akademik ma'lumotlarni elektron tarzda avtomatik boshqarish hamda yakuniy nazoratlarni o'tkazish maqsadida tashkil etiladi.

30. Ro'yxatga olish xizmati o'quvchiga tanlagan mutaxassisligi bo'yicha yuqori darajadagi bilim, ko'nikma va malakalarga erishishda yordam berishga qaratilgan bo'lib, quyidagi funksiyalarni qamrab oladi:

o'quv jarayoni jadvalini tuzish va bajarilishini nazorat qilish;

o'quvchilarning fanlarga ro'yxatdan o'tishini nazorat qilish;

akademik guruhlarni shakllantirish;

oraliq, yakuniy baholashlar va yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazilishini nazorat qilish;  
ma'lumotlar bazasini shakllantirish va muntazam yangilab borish;  
ta'lim olayotgan o'quvchilar haqidagi ma'lumotlarning saqlanishini tashkil etish;  
transkript shakllarini shakllantirish va o'quvchilarning ma'lumotlarini kiritish;  
o'quvchilar kontingenti bo'yicha statistikasi yuritish.

31. Ro'yxatga olish xizmatlari o'quv-metodik bo'lim tomonidan amalga oshiriladi. Texnikumlarning moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan Ta'limning kredit tizimini boshqarish sektori tashkil etilishi mumkin.

32. Ro'yxatga olish xizmati belgilangan jadvalga muvofiq o'quvchilarni fanlarga ro'yxatdan o'tkazadi va o'quvchining shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantiradi.

O'quvchining shaxsiy ta'lim trayektoriyasi ular tomonidan mustaqil ravishda guruh murabbiyi yordamida o'quv rejasini va tanlov fanlari asosida umumiy o'qish davri uchun tuziladi.

O'quvchi shaxsiy ta'lim trayektoriyasiga har o'quv yilidan oldin o'zgartirish yoki qo'shimchalar kiritishi mumkin.

33. O'quvchining shaxsiy ta'lim trayektoriyasi asosida ro'yxatga olish xizmati akademik guruhlarini shakllantiradi va muayyan bir fanga yozilish yetarli bo'lmagan taqdirda, shaxsiy ta'lim trayektoriyasini o'zgartirish zarurligi to'g'risida o'quvchilarga xabar beradi.

O'quvchining shaxsiy ta'lim trayektoriyasi shakllantirib bo'lingandan so'ng ro'yxatga olish xizmati dars jadvalini tuzish uchun texnikum o'quv-metodik bo'limiga akademik guruhlar to'g'risida ma'lumot beradi.

34. Ro'yxatga olish xizmati har bir o'quvchini ro'yxatdan o'tkazish sanasi va vaqtini belgilaydi (o'quvchi tomonidan yetarli GPA ko'rsatkichlarining to'plaganligi va to'lov-kontrakt amalga oshirilganligiga qarab).

Birinchi bosqich o'quvchilarini ro'yxatdan o'tkazish ular bilan akademik va kasbga yo'naltirish tadbirlari amalga oshirilganidan so'ng boshlanadi.

35. O'quvchilar tanlagan fanlarini har semestrning birinchi haftasi ichida o'zgartirishi mumkin.

### **6-bob. Yakunlovchi qoidalar**

36. Texnikumda ta'lim olishning to'lov-kontrakt miqdori qonunchilik hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

37. Fanlar bo'yicha qayta ta'lim olish uchun to'lov qiymati texnikum tomonidan butun o'quv yilining to'lov-kontrakt summasidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Qayta ta'lim olish uchun to'lov-kontrakt mexanizmi texnikum tomonidan bir kredit qiymatini hisoblash asosida aniqlanadi.

Bir kredit qiymati o'quv yili davomidagi ta'lim olish uchun to'lanadigan bazaviy to'lov-kontrakt miqdorini rejalashtirilgan kreditlar miqdoriga bo'lish yo'li bilan belgilanadi.

38. Ta'lim dasturida belgilangan natijalarga erishish hamda kredit-modul tizimi to'g'ri va haqqoniy qo'llanilayotganligini aniqlash va baholash maqsadida o'quv jarayonining monitoringi o'tkaziladi.

Monitoring texnikum va oliy ta'lim tashkiloti tomonidan so'rovnoma, intervyu olish yoki erishilgan natijalarni tahlil qilish va boshqa usullarda amalga oshirilishi mumkin.

39. O'quvchi o'quv rejasida nazarda tutilgan kreditlarni to'plasa, shu jumladan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tsa, professional ta'limning tegishli darajasiga ega bo'ladi va unga belgilangan tartibda davlat namunasidagi diplom beriladi.

40. O'quvchilarning shaxsiy ta'lim trayektoriyalariga tegishli ma'lumotnomalar, kreditlarni tan olish va o'qishini ko'chirib o'tkazishga taalluqli hujjatlar, transkriptlar, imtihon qaydnomalari 75 yil davomida texnikumlar arxivida saqlanadi.

Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 7-  
dekabrdagi 648-son qaroriga  
2-ILOVA

## O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar

1. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi 466-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus professional ta'lim to'g'risidagi [nizom](#) quyidagi mazmundagi 61<sup>1</sup> — 61<sup>5</sup>-bandlar bilan to'ldirilsin:

“61<sup>1</sup>. Texnikum o'quvchilarini o'qishdan chetlashtirish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

O'quvchi chetlashtirilguniga qadar o'zlashtirgan kreditlar miqdori texnikum tomonidan to'liq hajmda hisobga olinadi.

Chetlashtirilgan o'quvchiga belgilangan shakldagi akademik ma'lumotnoma beriladi.

61<sup>2</sup>. O'quvchilar qonunchilik hujjatlari asosida o'qishini qayta tiklash va ko'chirish huquqiga ega.

61<sup>3</sup>. Bir fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan o'quvchi ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi.

Yakuniy nazoratga kiritilmagan yoki kirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha qoniqarsiz baho olgan o'quvchi akademik qarzdor hisoblanadi.

Texnikumda akademik qarzdor o'quvchilar ta'til vaqtida yoki keyingi semestrlar mobaynida tegishli fanlardan o'zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to'lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda to'lovni amalga oshirgandan so'ng o'zlashtirilmagan fanlarni o'z hisobidan qayta o'qish huquqiga ega bo'ladi.

Texnikum pedagogik kengashi qarori bilan akademik qarzdorlikni bir marta bepul topshirishga ruxsat berilishi mumkin.

61<sup>4</sup>. O'quvchini kursdan kursga o'tkazish, uning GPA qiymatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bunda GPA ko'rsatkichi 2,4 dan kam bo'lmasligi talab etiladi. GPA ko'rsatkichini to'play olmagan o'quvchi qayta o'qish uchun tegishli kursda qoldiriladi.

61<sup>5</sup>. Semestr va o'quv yili yakuni natijalari bo'yicha akademik qarzdorligi bor ta'lim oluvchilar o'qishdan chetlashtirilmaydi va kursda qoldiriladi.

Kursda qolgan o'quvchilar faqat qarzdor bo'lgan modullarni o'zlashtirib, ularga mos ravishda shartnoma mablag'larini to'laydi. Shartnoma asosida bir kursda qayta o'qish soni chegaralanmaydi.

GPA ko'rsatkichini hisoblashda o'quvchi tahsil olgan kurs yakuniga ko'ra qayta topshirish natijalari ham inobatga olinadi.

O'quvchi ishlab chiqarish (diplomoldi) amaliyotiga qatnashmagan yoki amaliyot yakunlari bo'yicha qoniqarsiz baho bilan baholangan hollarda, u akademik qarzdor hisoblanadi va GPA ko'rsatkichidan qat'i nazar kursda qoldiriladi.

O'quv rejasida belgilangan ta'lim olish muddatida tegishli kurslarni tamomlagan, lekin belgilangan kredit miqdorini to'play olmagan o'quvchi texnikumda o'qishni bitirayotgan o'quvchi sifatida qayd etiladi.

Jami ta'lim olish muddati birinchi kursga o'qishga qabul qilingandan so'ng 6 yilgacha deb belgilanadi.

O'quvchi ta'lim dasturi bo'yicha yakuniy kursni tugatgandan so'ng belgilangan eng kam kreditlar miqdorini to'plab, shartnoma to'lovidan qarzi bo'lmasa, “bitiruvchi” maqomiga ega bo'ladi”.

2. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 26-fevraldagi 106-son qarori bilan tasdiqlangan Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonini tashkil etish tartibi to'g'risidagi [nizomda](#):

a) [2-band](#) quyidagi mazmundagi xatboshilar bilan to'ldirilsin:

“**kredit** — ta'lim olish natijalariga ko'ra tinglovchi tomonidan muayyan modul bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi;



**kredit to'plash** — ta'lim elementlarini o'zlashtirish va kasbiy faoliyat natijasida erishgan yutuqlar bo'yicha taqdim etiladigan kredit birliklarini yig'ish;

**kasbiy rivojlanish trayektoriyasi** — tinglovchi tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut). Ta'lim trayektoriyasi institutsional hujjatlar va yo'riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta'lim trayektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin;

**modul** — tinglovchining tegishli bilimga egalik qilish, kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv dasturining mustaqil tarkibiy qismi;

**kredit-modul** — har bir o'zlashtirilgan modul bo'yicha kredit birliklari jamlab boriladigan o'qitish-baholash tizimi;

**tinglovchi** — qayta tayyorlash yoki malaka oshirish kurslarida belgilagan tartibda tahsil olayotgan jismoniy shaxs;

**GPA (Grade Point Average)** — tinglovchining dastur bo'yicha o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati bo'lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$GPA = \frac{K_1 * U_1 + K_2 * U_2 + K_3 * U_3 + \dots + K_n * U_n}{K_1 + K_2 + K_3 + \dots + K_n}, \text{ bunda:}$$

$K_n$  — har bir modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

$U_n$  — har bir modul bo'yicha tinglovchi to'plagan ball;

$n$  — modulning soni.

Bunda tinglovchi faqat modulni muvaffaqiyatli yakunlagan taqdirda, ushbu modul bo'yicha kredit beriladi.”;

b) 21-banddagi “ilovasida” so'zi “1-ilovasida” so'zi bilan almashtirilsin;

v) 39-banddan so'ng quyidagi mazmundagi 5<sup>1</sup>-bob bilan to'ldirilsin:

### **“5<sup>1</sup>-bob. Qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish**

39<sup>1</sup>. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o'quv rejasi va o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

39<sup>2</sup>. O'quv rejasi va o'quv dasturi har bir ta'lim elementiga mos keladigan ta'lim olish natijalarini ko'rsatgan holda, malaka oshirish kurslarida 24 kredit va qayta tayyorlash kurslarida 96 kreditga mos kelishini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

39<sup>3</sup>. Qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonini rejalashtirish tasdiqlangan kontingent reja-jadvali va nazorat tadbirlari (guruhlarni shakllantirish, malaka oshirish shakllari bo'yicha taqsimlash: muqobil, mustaqil, ta'lim muassasasida bevosita malaka oshirish, kreditlarni hisoblash) majmuini o'z ichiga oladi.

Qayta tayyorlash va malaka oshirishga jalb etilgan tinglovchilar belgilangan kreditni o'zlashtirishi orqali uning natijalarini monitoring qilishi va ta'lim dasturidagi o'quv modullarining sifatli o'zlashtirilishini ta'minlash nazarda tutiladi.

39<sup>4</sup>. Qayta tayyorlash va malaka oshirish davomida tinglovchi tomonidan to'planishi lozim bo'lgan kreditlar miqdori o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov modullarini o'z ichiga oladi.

Majburiy va tanlov modullari tarkibi hamda ularni o'rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori Institut tomonidan belgilanadi.

39<sup>5</sup>. Qayta tayyorlash va malaka oshirishda 1 kredit 6 soatlik o'quv yuklamasiga teng bo'ladi. Bunda tinglovchi muayyan moduldan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur.

Malaka oshirish kurslarining davriyligi 3 yilda kamida bir marta bo'lib 24 kredit (144 soat), qayta tayyorlov kurslari tinglovchilari 96 kredit (576 soat) to'plashi zarur.

39<sup>6</sup>. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari davomida belgilangan kredit miqdorini o'zlashtira olmagan hamda uzrli sabablarsiz tinglovchilar safidan chetlashtirilgan tinglovchilar bir yil davomida o'z hisobidan ishdan ajralgan holda yoki masofadan malaka oshirishlari talab qilinadi.

39<sup>7</sup>. Tinglovchilar malaka oshirish shakllari bo'yicha belgilangan kreditlarni to'plashi lozim bo'ladi.

Bunda:

muqobil malaka oshirishga jalb etilgan tinglovchilar ko'rsatkichlardan birini bajarib 23 kredit, mahorat darsi uchun 1 kredit jami 24 kredit to'playdi;

mustaqil malaka oshirishda tinglovchilar belgilangan ko'rsatkichlar bo'yicha to'plagan kreditlar miqdori 16 va undan yuqori bo'lganda ro'yxatga olinadi va 16 — 24 oralig'idagi kreditlarni elektron platforma orqali to'playdi, 16 dan kam kredit to'plagan tinglovchilar bevosita ta'lim muassasasida malaka oshirish shaklida ro'yxatga olinadi;

bevosita ta'lim muassasasida malaka oshiradigan tinglovchilar malaka oshirishning o'quv rejasidagi modullarni o'zlashtirish orqali 24 kreditni to'playdi.

39<sup>8</sup>. Qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida tinglovchilar belgilangan modullar bo'yicha 56 foizdan yuqori o'zlashtirsa, modul uchun ajratilgan kredit beriladi.

Professional ta'lim tizimida rahbar va pedagog xodimlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish jarayoniga kreditlarni taqsimlash mazkur Nizomga 2-ildovada keltirilgan mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi.

39<sup>9</sup>. Muqobil va mustaqil malaka oshirish shakllari tinglovchilari belgilangan mezonlar bo'yicha ijobiy baholansa, bevosita ta'lim muassasasida malaka oshiradigan tinglovchilar malaka oshirishning o'quv rejasidagi modullarni o'zlashtirganligi uchun kreditlar beriladi. Tinglovchilar belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, kreditlar berilmaydi”;

- g) ilova 1-ilova deb hisoblansin;
- d) quyidagi mazmundagi 2-ilova bilan to'ldirilsin:

“Professional ta'lim muassasalarining boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonini tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomga 2-ILOVA

Professional ta'lim tizimida rahbar va pedagog xodimlarni qayta tayyorlash hamda ularning malakasini oshirish jarayoniga kreditlarni taqsimlash

JADVALI

| T/r                                                     | Ko'rsatkichlar nomi                                                                                                                                                                                                                       | Amal qilish muddati          | Kredit miqdori |
|---------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------|----------------|
| 1. Muqobil malaka oshirish shakli uchun kredit to'plash |                                                                                                                                                                                                                                           |                              |                |
| 1.                                                      | O'zbekiston Respublikasining davlat mukofotlari bilan taqdirlangan rahbar yoki pedagog xodim                                                                                                                                              | Malaka oshirish davriyligida | 23             |
| 2.                                                      | “Ustoz” milliy mukofoti g'olibi                                                                                                                                                                                                           | So'nggi 3 yilda              | 23             |
| 3.                                                      | “Worldskills” musobaqalari sovrindorlarini tayyorlagan ta'lim tashkilotining rahbar yoki pedagog xodim                                                                                                                                    | So'nggi 2 yilda              | 23             |
| 4.                                                      | Respublika miqyosidagi fan olimpiadalari va ko'rik-tanlovlarda g'oliblikni qo'lga kiritgan o'quvchilarni tayyorlagan rahbar yoki pedagog xodim                                                                                            | So'nggi 2 yilda              | 23             |
| 5.                                                      | O'quvchilari xalqaro matematika (IMO), fizika (IPhO), kimyo (IChO), biologiya (IBO) informatika (IOI) olimpiadalarida oltin, kumush yoki bronza medal (birinchi, ikkinchi va uchinchi o'rin) bilan taqdirlangan rahbar yoki pedagog xodim | So'nggi 4 yilda              | 23             |

|                                                                   |                                                                                                                                                                                                                                                              |                                                                                                                                        |               |
|-------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|
| 6.                                                                | Falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga hamda Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan berilgan katta ilmiy xodim, dotsent yoki professor ilmiy unvoniga ega bo'lgan rahbar yoki pedagog xodim | So'nggi 4 yilda                                                                                                                        | 23            |
| 7.                                                                | Yuqoridagi ko'rsatkichlardan biriga ega bo'lgan rahbar yoki pedagog xodim mahorat darsini o'tib berishga jalb etiladi                                                                                                                                        | Malaka oshirish davriyligida                                                                                                           | 1             |
| 2. Mustaqil malaka oshirish shakli uchun kredit to'plash          |                                                                                                                                                                                                                                                              |                                                                                                                                        |               |
| 1.                                                                | Pedagogik faoliyat bo'yicha 5 yil va undan ko'p ish stajiga ega bo'lgan rahbar yoki pedagog                                                                                                                                                                  | 10 yil va undan ko'p ish stajiga ega<br>5 — 9 yil ish stajiga ega                                                                      | 4<br>2        |
| 2.                                                                | Seminar-treninglar tashkil etish                                                                                                                                                                                                                             | respublika miqyosida<br>viloyat miqyosida                                                                                              | 2<br>1        |
| 3.                                                                | Ilmiy konferensiyalarda ma'ruzalar bilan qatnashish yoki ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish                                                                                                                                                              | xalqaro miqyosda<br>respublika miqyosida (har bir maqola uchun)                                                                        | 5<br>3        |
| 4.                                                                | Innovatsion ishlanmalarga mualliflik qilish                                                                                                                                                                                                                  | ratsionalizatorlik taklifi<br>innovatsion ishlanmalarga mualliflik                                                                     | 2<br>2        |
| 5.                                                                | Malaka toifasiga ega bo'lgan yoki tegishli lavozimdagi pedagog                                                                                                                                                                                               | oliy malaka toifali yoki bosh o'qituvchi<br>birinchi malaka toifali yoki yetakchi o'qituvchi<br>ikkinchi toifali yoki katta o'qituvchi | 3<br>2<br>1   |
| 6.                                                                | Oliy malaka toifaga (bosh o'qituvchi lavozimi) ega bo'lganidan so'ng oliy malaka toifasini 5 yil davomida saqlab kelgan va uzluksiz ish stajiga ega bo'lgan pedagog xodim                                                                                    | -                                                                                                                                      | 1             |
| 7.                                                                | Gazeta, jurnal va internet-nashrlarida maqolalar chop etish                                                                                                                                                                                                  | gazeta va jurnallarda<br>internet axborot tarmog'i nashrlarida                                                                         | 1<br>1        |
| 8.                                                                | Har o'quv yili davomida ochiq darslar o'tganligi uchun                                                                                                                                                                                                       | uch marta va undan ortiq<br>ikki marta<br>bir marta                                                                                    | 2<br>1<br>0,5 |
| 9.                                                                | Xalqaro ilmiy jurnallarda va mahalliy ilmiy nashrlarda ("Web of Science", "Scopus" bazasiga va Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatiga kiritilgan jurnallarda) chop etilgan maqolalar                                                                       | xalqaro jurnallardagi ilmiy maqolalar<br>respublika ilmiy jurnallaridagi ilmiy maqolalar                                               | 5<br>3        |
| Jami kreditlar miqdori                                            |                                                                                                                                                                                                                                                              |                                                                                                                                        | 16 — 24       |
| 3. Bevosita ta'lim muassasasida malaka oshirishda kredit to'plash |                                                                                                                                                                                                                                                              |                                                                                                                                        |               |
| 3.1. Rahbar xodimlar                                              |                                                                                                                                                                                                                                                              |                                                                                                                                        |               |
| 1.                                                                | Ta'limda boshqaruvga                                                                                                                                                                                                                                         |                                                                                                                                        | 1 — 3         |
| 2.                                                                | Boshqaruvda huquqiy masalalar                                                                                                                                                                                                                                |                                                                                                                                        | 2-3           |
| 3.                                                                | Boshqaruvda moliyaviy-iqtisodiy masalalar                                                                                                                                                                                                                    |                                                                                                                                        | 2-3           |
| 4.                                                                | Boshqaruvda mas'uliyati va moslashuvchanlik                                                                                                                                                                                                                  |                                                                                                                                        | 0-1           |

|                        |                                                                        |         |
|------------------------|------------------------------------------------------------------------|---------|
| 5.                     | Boshqaruvda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik | 1-2     |
| 6.                     | Kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish                              | 3 — 5   |
| 7.                     | O'z-o'zini rivojlantirish                                              | 4 — 6   |
| 8.                     | Tinglovchilar bilimini baholash                                        | 0-1     |
| Jami kreditlar miqdori |                                                                        | 14 — 24 |
| 3.2. Pedagog xodimlar  |                                                                        |         |
| 1.                     | Professional ta'limga oid davlat siyosati masalalari                   | 1-2     |
| 2.                     | Pedagogning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish                 | 2-3     |
| 3.                     | Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va mediasavodxonlik             | 1-2     |
| 4.                     | O'z-o'zini rivojlantirish va uzluksiz kasbiy rivojlanish masalalari    | 3 — 5   |
| 5.                     | Pedagogik mas'uliyat va moslashuvchanlik                               | 4 — 6   |
| 6.                     | Fandagi yangiliklar va fanni o'qitishning dolzarb masalalari           | 2-3     |
| 7.                     | O'quvchilar kompetensiyalarini baholash usullari va vositalari         | 1-2     |
| 8.                     | Tinglovchilar bilimini baholash                                        | 0-1     |
| Jami kreditlar miqdori |                                                                        | 14 — 24 |

*Izoh. Professional ta'lim tizimida rahbar va pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish jarayoniga kreditlarni taqsimlash jadvaliga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin".*

*(Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 11.12.2023-y., 09/23/648/0929-son)*



Tezkor va qulay  
onlayn mikroqarz

100 mln

so'mgacha

Kredit foizi: 26%-30% gacha

Kredit muddati: 2-48 oygacha

